



ICHKI MOTIVLARNING YOSHGA BOG'LIQLIK XUSUSIYATLARI.

¹Muxammadjonova
Xadichaxon Xusanjon qizi
²Xaydarova Firzoda
Olimjon qizi

¹Qo‘qon davlat pedagogika instituti Psixologiya
kafedrasi stajyor-o’qituvchisi
²Qo‘qon davlat pedagogika instituti Psixologiya
yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada motivatsiya so‘ziga ta’rif va uning kelib chiqishi, motivatsiya turlari, ichki motivlar insonning ichki motivatsiyasi yani uning xulq-atvorini, qarorlarini va faoliyatini shaklaniruvchi ichki omil ekanligi, kichik maktab yoshidagi bolalarda ichki motivatsiya shakllanishida muhim ahamiyati keng yoritib berilgan hamda bu ma’lumot asnosida umumiy xulosalar berib o‘tilgan.

Kalit so’zlar: Kichik maktab yoshi, yosh davrlari, motiv, motivatsiya, tashqi motivlar, ichki motivlar, psixik rivojlanish, bilish jarayonlari.

KIRISH.

Inson bu dunyoga qadam qo’yar ekan u o’z olamini topadi. Bu olamda esa uni bir dunyo unga tasir etuvchi omillar qarshi oladi. Bu omillar uni yashashi, rivojlanishi va kelajak hayotini belgilab beradi. Ana shulardan biri bu insonning ichki xohishlari hisoblanadi. Motiv bu insonning biror bir faoliyatga undovchi ichki va tashqi omil bo’lsa, motivatsiya bu o’z maqsadlariga erishish hayotdagi muvaffaqiyatlariga erishish uchun ichki kuch va energiyadir.

Motivlar muommosi rivojlanishda uzoq va qiyin yo‘llarni bosib o‘tdi. Tadqiqotlar tarixini hisobga olgan holda, motivatsiya assotsiatsiyachilarining “atomizm” tushunchalarini yengish bilan bog‘liq holda rivojvana boshlagan. XIX asr oxiri XX asr boshiga kelib chet el psixologlari motivlarni o‘rganishga katta e’tibor berishgan. Motivatsiya masalalarini ishlab chiqish psixologiya fanining turli sohalarida turli usullardan foydalangan holda intensiv ravishda amalga oshiriladi.

Motiv keng ma’noda xulq-atvor determinatsiyasi belgilanishiga qaramay, ko’pgina chet el tadqiqotchilari shaxs motivlarini juda tor ma’noda talqin qilganlar.

Har bir insonning o’z maqsadlariga erishishga qaratilgan ishonch va qat’iy harakati bo’ladi. Bugungi kunda motivlarning keng tarqalgan turi bu tashqi va ichki motivlardir. Odatda, tashqi motivlar tashqi komponentlardan kelib chiqadi. Ichki motivlar esa, insonning o’z maqsadlari, ehtiyojlari va qiziqishlari asosida xatti-harakatlarini boshqaruvchi, o’ziga bo’lgan ishonch va ehtiyojlaridan kelib chiqqan kuchlardir. Ichki motivga misol qilib bolalikdagi tajribalar, ota-onasiga va atrof muhitdan keladigan ta’sirlarni keltirishimiz mumkin. O’z navbatida motivlar kelajakdagagi intilashlarga ham ta’sir ko’rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'tgan asrda psixologlari motivlarni tushuntirishda va uning tarkibiy qismlarini belgilashda dinamik va ma'noviy (ma'naviy) tomonlarining uyg'unligidan kelib chiqqan holda talqin qiladilar. Jumladan, Z.Freyd motivning qonun-qoidalarini faqat dinamik energetik holat tariqasida talqin qiladi. Bir guruh chet el psixologlarining fikriga qaraganda, motiv – bu tajriba va reaksiyalarning energetik jabhasidan iboratdir.

S.L.Rubinshteyn motivning psixologik mohiyati to'g'risida quyidagi mulohazalarni bildiradi: motivatsiya – bu psixika orqali hosil bo'ladigan determinatsiyadir; motiv – bu shaxs xulq-atvorining kognitivistik jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog'lovchi sub'ektiv tarzda aks etish demakdir.

Vgotskiyning motivatsiya va rivojlanish haqidagi fikrlari bolalarning o'qish va o'rganish jarayonida ijtimoiy, madaniy va psixologik omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Uning nazariyasi bo'yicha, bola faqat o'zini rivojlantirish uchun imkoniyatga ega bo'lganda va bu rivojlanish ijtimoiy yordam bilan amalga oshirilganda eng yuqori motivatsiyaga erishadi. Bu bolalar uchun yangi maqsadlar va yutuqlarga erishishga ilhom beruvchi muhit yaratadi. Shuning uchun ham kichik mакtab yoshi davrida bolani ota-onasi hamda ustozlari tomonidan qo'llab quvatlanishi ham kelajakdagи yutuqlarida juda muhim hisoblanadi.

METODLAR

Bolalarning psixik rivojlanishini Klapared tafakkur rivojlanishiga tenglashtirgan va tafakkur tipining o'zgarishiga qarab to'rt bosqichga ajratadi.

Birinchi bosqichda predmetlarning tashqi ko'rinishi idrokni shakllanishi sodir bo'ladi. Ikkinci bosqichda (2yoshdan 3 yoshgacha) nutqiy predmedlarini nomlari o'zlashtiriladi. Uchinchi bosqichda (3yoshdan 7 yoshgacha) tafakkur bolaning umumiyligi qobiliyatlar, to'rtinchi bosqichda esa (7yoshdan 12yoshgacha) maxsus qiziqishlar shaklanadi va individual moyilliklari ifodalanadi.

Bundan ko'rishimiz mumkinki bolalar deyarli 12 yoshgacha tevarak atrofni anglab bo'ladi. Ilk davrlarda bolalar tevarak atrofdan maqtov olishga harakat qiladi bu maqtovlar turli vaziyatlarda turlacha bo'lishi mumkin. Shuningdek bolalar musiqa va raqlar bilan ham o'zlarini ko'rsatishga harakat qiladi. Keyinchalik bu qiziqishga aylanishi va qiziqish orqali bu qobiliyat rivojlanishiga yordam beradi. Bu qadamlar esa uni kelajakda yaxshi musiqachi bo'lishiga ichki motiv bo'la oladi.

Bolalarda turli davrlarda turli inqirozlarni boshdan kechiradi va bu inqirozlar ba'zi hollarda qaysarlik bo'lib ko'zga tashlanadi, bu esa ota-onalar tomonidan turli xil etirozlarga sabab bo'ladi bu omillar bolada tabiy xol bo'lib bu jarayonda bolaga to'g'ri yo'nalish bera olish ota-onadan qunt talab etadi.

Maktabning 3-sinfida o'qiydigan bolaga bog'chadagi 3 yosh bolaga qilingan muomalani qilib bo'lmaydi, chunki bu yosh davrlari o'rtasida bola turli rivojlanish bosqichlaridan o'tib sayqallanib borayotgan bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar turli savollar berishni yoqtiradi. Masalan, sizning yoshingiz nechada, dadam kattami yoki oyim? Samalyot yuradimi? Oy nimaga uxlaydi? kabi savollar bolani kelajakdagи qiziqishlarini qay yo'nalishga bog'liq ekanligini aniqlashimizga imkon yaratadi. Bu o'rinda bolaning faoliyati faol vaziyat hisoblanib, mavjud ehtiyojlari, qiziqishlari

psixologik holatlardan uzoqlashib boradi, so'ngra yangi qiziqish, ehtiyoj va intilishlari shakllanadi, natijada motivlar mohiyati va shakllari o'zgaradi.

NATIJA

Motivlarning rivojlanishi tufayli tarbiyaviy talablarni anglashda, ehtiyojlarni ichdan qayta qo'rishda xulq-atvor qoidalari, mezonlari yordami bilan faoliyat doirasining kengayishida, shaxsning borliq bilan munosabati kabilarda o'zgarishlar sodir bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, motivlarning rivojlanishi, motivlashgan yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishi, faoliyat muhiti doirasidagi o'zgarishlar tufayli amalga oshiriladi.

Kichik mакtab yoshida bolaning asosiy faoliyati o'qish bo'lib, boladagi ichki va tashqi motivlarlar ham aynan shu o'qish faoliyati bilan bog'liq holda shakllanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, har bir insonni bolaligi bu uning kelajagini belgilab beradi. Ichki motivatsiya bola rivojlanishining ajralmas qismi bo'lib, u bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch, ijodkorlik, mustahkam bilim va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tashqi rag'batlantiruvchilarga nisbatan ichki motivatsiya bolalarning uzoq muddatli muvaffaqiyatlarini ta'minlashda yanada samarali hisoblanadi. O'qituvchilar, ota-onalar va jamiyat bolalar uchun qulay, qiziqarli va ma'noli rivojlanish imkoniyatlarini yaratgan holda ichki motivatsiyani kuchaytirishlari mumkin. Bu esa bolalarga o'zlarini erkin ifodalash, yangi imkoniyatlarni kashf etish va kelajakdagi muvaffaqiyatlarga erishishda yordam beradi.

REFERENCES

- 1.P.I.Ivanov. M.E.Zufarova "Umumiyy psixologiya" darslik Toshkent 2023
- 2.Z.T.nishonova,N.G.Kamilova,D.U.Abdullayeva,M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagoik psixologiya" darslik Toshkent-2018
3. G'oziev E. Umumiyy psixologiya. – T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010. – 214 b. (544)
4. Ibragimova Sh.G., Muxammadjonova X.X. // SCIENTIFIC PREGRESS. Volume 2, 2021. Pp, 501-505.
- 5.Eshonqulova G.A., Mahmudov M.Q. //TASHQI VA ICHKI MOTIVATSİYALAR NING YOSHGA BOG'LQLIGI. Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili. Respublika ilmiy-amaliy anjumanı. 2022. 369-371 b.
- 6.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:Se3iqnhoufwC
- 7.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC